

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi bo‘yicha 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar holati to‘g‘risidagi

A X B O R O T I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va aholining muammolarini hal etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bu borada, 2025-yil davomida ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash maqsadida bir qator quyidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

I. Tezkor-qidiruv faoliyatini jadallashtirish

– noqonuniy muomaladagi **3 tn 775 kg 513 gr** giyoxvandlik moddalari, **2 055 072 dona psixotiroop moddalari** olindi;

– respublikada sodir etilgan oldi olinishi mumkin bo‘lgan **jinoyatlarning 36 421 tasi** fosh etildi, ichki ishlar organlari tomonidan o‘tkazilgan **tezkor-qidiruv va tergov harakatlari davomida 9 921 nafar** shaxslar **ushlandi**, **600 nafar** bedarak yo‘qolganlar topilib, **3 ta** shaxsi **noma’lum** **murdalarning shaxsi** aniqlandi;

– **3 757 nafar** shaxslar tomonidan sodir etilgan **3 282 ta** **korrupsiya va iqtisod sohasidagi jinoyatlar** aniqlanib, ular oqibatida yetkazilgan **239 mlrd 584 mln so‘m** miqdoridagi **zarar undirilishi ta‘minlandi**;

– **paxta texnik chigiti** va **undan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning** noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq **81 ta** qonunbuzarlik holatlari aniqlanib, ular yuzasidan **39 ta** jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, **42 nafar** shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi, huquqbuzarlardan **88 898 kg paxta chigiti**, **6 922 kg kunjara**, **51 940 kg paxta xom ashyosi**, **13 736 kg mahalliy hamda qo‘lbola** paxta yog‘i olib qo‘yildi va davlat tasarrufiga o‘tkazildi;

– **yer resurslari talon-toraj qilinishiga** qarshi kurashish yo‘nalishida **1 199 ta** jinoyatlar aniqlandi, **noqonuniy muomaladan olingan yerlarning 2161,01 gektar** tashkil etadi;

– **444 ta “hujra” tashkil qilgan** shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rilishi ta‘minlanib, **155 ta chegara qoidalarini buzish** holatlari aniqlandi.

– **444 ta “hujra” tashkil qilgan** shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rilishi ta‘minlanib, **155 ta chegara qoidalarini buzish** holatlari aniqlandi.

II. Mahallalarda xavfsiz muhit yaratish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar

Xususan, mahallalarni yanada xavfsiz qilish uchun mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy etish maqsadida, Prezidentimizning 2025-yildagi birinchi son qarorlari qabul qilindi.

2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarori.

Mazkur qaror bilan 2025-yilda “Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish” barcha rahbarlar uchun – ustuvor vazifa etib belgilandi.

Mazkur qaror bilan mahallalarda xavfsizlikni ta'minlash uchun yangi tajribalar amaliyotga joriy etilmoqda.

Jumladan, shu kungacha samarasiz faoliyat yuritgan profilaktika inspektori yordamchilari lavozimlarini tugatish hisobidan:

- profilaktika kichik inspektori, migratsion profilaktika bo'linmalari, tumanlararo "ma'muriy konvoy guruhleri", "ma'muriy amaliyot guruhleri" kabi lavozimlar joriy etildi;
- respublikaning 1 235 ta kriminogen og'ir mahallalariga tuman-shahar hokimlari, prokurorlar, ichki ishlar hamda qo'riqlash xizmati boshlig'i va ichki ishlar boshliqlarining o'rinbosarlari, soliq idoralari rahbarlari nomma-nom biriktirildi;

Qaror bilan, ilk bor respublika, viloyat, tuman-shahar va mahallalar kesimidagi "yo'l xarita"lar hamda asosiy maqsadli ko'rsatkichlar (*indikatorlar, kamera, domofon, texnik qo'riqlash kabi*) ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Mahallaning "yo'l xarita"sida nafaqat "mahalla yettiligi"ning, balki adliya, mudofaa, sog'liqni saqlash, bandlik, ta'lim, kommunal xizmat kabi tashkilotlarning ham aynan mahallaning o'zida qilinishi lozim bo'lgan vazifalar va ishlanadigan kontingent soni aniq belgilab berildi.

Sodda qilib aytadigan bo'lsak, Prezident qarorining ilovalari bilan respublika–viloyat–tuman–mahallada kim nima ish qilishi kerakligi aniq yozilgan (*mas'ullar familiyasi bilan biriktirilgan*) va barcha masalalar qamrab olingan.

205-yil 9-martdan boshlab respublikaning barcha hududlarida **kompleks inspektorlik tekshiruvi** o'tkazilmoqda.

Ichki ishlar vazirining 2025-yil 9-martdagi 90-son farmoyishi

Barcha hududlarda o'rganishlar amalga oshirildi. Bunda 150 nafardan ziyod vazirlikning barcha sohaviy xizmatlaridan iborat malakali rahbar xodimlari kelib, hamma sohaviy xizmatlar faoliyatini o'rgandi va amaliy yordam ko'rsatdi.

Prezidentimizning 2025-yil 18-avgustdagi mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan PQ-253-son qaror imzolandi.

Ushbu qaror bilan, so'nggi besh yilda kriminogen vaziyati murakkab bo'lib qolayotgan mahallalarda alohida yondashuvlar asosida tashkiliy-profilaktik tadbirlar orqali jinoyatlarni jilovlash bo'yicha manzilli choralar konsepsiyasi tasdiqlandi.

Konsepsiyada mas'ul davlat organlari faoliyatining 12 ta ustuvor yo'nalishlari va 35 ta mexanizmlari (chora-tadbirlari) belgilangan

Konsepsiyaga asosan mahallalarda quyidagicha ishlash tartibi yo'lga qo'yildi:

- har bir murakkab mahalla kesimida alohida har oylik "yo'l xarita" ishlab chiqilib, bevosita viloyat hokimi, prokurori, IIB boshlig'i va biriktirilgan ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlandi;
- tuman-shahar IIB rahbari va prokurorning xizmat xonasi bevosita mahallada tashkil etildi;

- mahallalarga viloyat darajasidagi IIB boshlig‘ining va prokurorning o‘rinbosarlari, sohaviy xizmat rahbarlari nomma-nom biriktirilib, ular haftada uch kunni to‘liq bevosita ushbu mahallalarda amalga oshirmoqda;
- mahallalarda kechayu-kunduz kuch-vositalarning tezkor harakatlanishini ta‘minlash maqsadida 2 nafar (*vaziyatdan kelib chiqib 3 nafargacha*) profilaktika inspektorlari (*shundan bitta katta inspektor*) shtati tashkil etildi, 2 nafardan iborat patrul-post xizmati naryadining faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda 1 nafar tezkor xodim biriktirildi;
- biriktirilgan ta‘lim muassasalari birinchi rahbarlarining “ilmiy xulosa – tavsiya – natija” tamoyiliga asosan mahallani xavfsiz hudud qilishga shaxsan javobgarligi belgilandi;
- Bosh prokuror va Ichki ishlar vazirining **qo‘shma qarori** ishlab chiqilib, respublikada kriminogen vaziyati murakkab 97 ta mahalla ro‘yxati hamda ularga biriktirilgan mas’ular tasdiqlandi;
- har yilning yakunida Konsepsiyada nazarda tutilgan manzilli chora-tadbirlarni keyingi yilda davom ettirish zarurati mavjud mahallalar va ularga biriktirilgan mas’ul rahbarlar ro‘yxatini Bosh prokuratura bilan birgalikda tasdiqlash amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi;
- mahallalar birlashtirilishi hisobiga qisqartirilgan mahallalarda 421 ta profilaktika inspektori kriminogen vaziyati murakkab bo‘lgan mahallalarga qayta taqsimlandi;
- aholi, ayniqsa yoshlar orasida **narkojinoyatlarga qarshi** samarali kurashish uchun barcha kuch-vositlar **safarbar etildi**;
- profilaktika inspektorlari faoliyatini sun‘iy intellekt orqali nazorat qilish va yangicha baholash tartibi joriy etildi;
- profilaktika inspektorlarining ish samaradorligi indikatorlari ishlab chiqildi;
- 2026-yil 1-yanvardan boshlab har chorak yakuni bo‘yicha profilaktika inspektorlarining ish samaradorligini indikator asosida avtomatlashtirilgan reyting tizimi orqali baholab borishi yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, kriminogen vaziyati murakkab va og‘ir mahallalarda nomma-nom biriktirilgan mas’ul rahbarlar tomonidan tashkil etiladigan “xavfsiz ko‘cha”, va “xavfsiz uy” loyihalariga qo‘yilayotgan namunaviy talablar (*texnik, infratuzilmaviy, tashkiliy*) belgilandi.

Bundan tashqari, **fuqarolarni qabul qilish** bo‘yicha yangicha tizim yo‘lga qo‘yilib, **har oyda** bir marotaba Ichki ishlar vaziri, **har haftada** vazir o‘rinbosarlari va hududiy ichki ishlar organlari rahbarlarining qabuli yo‘lga qo‘yildi.

– respublikadagi barcha **9 008 ta** mahallalardagi kriminogen vaziyat tahlil qilinib, **4 034 ta (44,8 %)** “**yashil**”, **4 311 ta (47,9 %)** “**sariq**” va **663 ta (7,4 %)** “**qizil**” toifalarga ajratildi;

– nazoratsiz yurgan 74 057 nafar voyaga yetmaganlar aniqlanib, ularning 14 638 nafarini ijtimoiy-huquqiy yordam markazlariga va 16 nafari o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirildi;

– voyaga yetmaganlarning 6 347 nafari o‘qishga qaytarildi, 6347 nafari sport, 5839 nafarini fakultativ to‘garaklarga, 667 nafari kichik biznes shoxobchalariga jalb etildi va 1435 nafari “Barkamol avlod” markazlariga joylashtirildi;

- farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalarning 960 nafari ishga joylashtirildi, 1 269 nafariga moddiy yordam ko'rsatildi.
- ijtimoiy ko'makka muhtoj ayollarning 6978 nafari ishga joylashtirildi, 1657 nafariga tibbiy yordam ko'rsatilib, 8004 nafariga moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishda ko'maklashildi va 454 nafari zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlariga joylashtirildi;
- tayziq va zo'ravonlikdan jabrlangan 93 382 nafar xotin-qizlarga himoya orderi berilib, himoya orderi cheklovlariga rioya qilmagan 4 974 nafar shaxslar O'zbekiston Respublikasi MJtKning 206¹-moddasi asosida ma'muriy javobgarlikka tortildi;
- 25 529 nafar ilgari sudlangan shaxslar profilaktik hisobdan chiqarilib, 6 926 nafari ishga joylashishi uchun yo'llanmalar berildi va 3 699 nafariga moddiy yordam ko'rsatildi;
- oila-turmush doirasidagi nizoli holatlar mavjud bo'lgan 93 382 ta oilalarning muammolari mahallaning o'zida ko'rib chiqilib, nizolar bartaraf etildi, shundan 42 286 ta oila yarashtirildi;
- sog'liqni saqlash idoralari hisobida turgan 59 544 nafar shaxslardan 9 026 nafari, shu jumladan, 4 796 nafar spirtli ichimlikka ruju qo'ygan, 888 nafar giyohvand va 3 342 nafar ruhiy kasallar majburiy davolashga jo'natildi;
- profilaktika inspektorlari tomonidan 2 mln 650 ming 599 ta ma'muriy huquqbuzarliklar, shundan, 954 767 ta pasport tizimi qoidalarini, 366 103 ta jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish va 4 251 ta oz miqdorda talon-toroj qilish huquqbuzarliklari aniqlangan;
- profilaktika inspektorining vakolatiga kiruvchi ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha 335 mlrd so'm jarima undirilgan bo'lib, 115 mlrd so'm jarimani undirish uchun hujjatlar tegishli idoralarga yuborilgan;
- bevosita profilaktika inspektorlari tomonidan 4 043 ta jinoyatlar fosh etildi, 535 nafar qidiruvda yurgan shaxslar ushlendi, 157 nafar bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirib topish choralari ko'rildi, 628 ta noqonuniy o'q otar qurollar aniqlandi;
- profilaktik hisobda turgan 744 524 nafar shaxslar bilan tashkil etilgan yakka tartibdagi profilaktik ishlari natijasida mazkur toifadagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar keskin kamayishiga erishildi;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga raqamli texnologiyalar kiritilishini ta'minlash uchun 5 471 ta tayanch punktlariga optik tolali kabel tortilib, buning natijasida sudlar tomonidan 148 032 ta ma'muriy ishlar masofadan turib o'tkazilishi ta'minlandi;
- bugungi kunda faoliyat yuritib kelayotgan 9 008 ta mahalla fuqarolar yig'inlarining, mazkur mahallalarning 426 tasida "Mahalla huquq-tartibot maskan"lari faoliyati yo'lga qo'yildi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi **PQ-1-son** qarorga asosan **Samarqand, Andijon, Farg'ona, Namangan va Toshkent viloyatlarining** kriminogen vaziyati og'ir **418 ta** mahallalarida jami **1 024 ta** shtat birliklaridan iborat **84 ta mahalla huquq-tartibot maskanlari** faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ma'lumot uchun: Toshkent v.da 29, Farg'onada 20, Samarqand va Andijonda 15 tadan va Namanganda 5 ta

– “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida profilaktika inspektorlari tomonidan xonadonlar, oilalar va profilaktik hisobdagi shaxslar oʻrganilib, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori boʻlgan 1 066 261 nafar shaxslar aniqlanib, bu toifadagi 85,5 foiz (912 077 nafar) shaxslarning muammolarini ijobiy hal etish choralari koʻrildi;

– ichki ishlar organlarida yoshlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish maqsadida 1 mln 17 ming 680 nafar yoshlar ichki ishlar organlari rahbar xodimlariga biriktirildi, 111 893 nafar yoshlarning turli ijtimoiy va maishiy muammolari aniqlanib, ularning 71 482 ta muammosi hal etildi;

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2025-yil 14-fevral kuni yoshlar bilan ochiq muloqot tarzida oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida (9-son topshiriqlar bayoni) ichki ishlar organlari rahbarlariga **17 689 nafar** alohida ishlash talab etiladigan “**ogʻir**” toifadagi yoshlar biriktirildi.

– tuman, shahar tibbiyot birlashmalari tarkibida 119 ta hushyorxonalar tashkil etildi. Tibbiy yordam koʻrsatish punktlariga keltirilgan shaxslarni qayd etish hamda oʻzaro axborot almashish tizimini joriy etish maqsadida vazirlik tomonidan “Ye-xushyorxona.uz” elektron dasturi yaratilib, ishga tushirildi.

Respublikada 9 008 ta mahallaning har birida jami 10 383 nafar profilaktika inspektori faoliyati yoʻlga qoʻyildi. “102” tizimi orqali kelib tushgan 92 foiz (2 521 615 ta) chaqiruvlar profilaktika inspektorlari tomonidan oʻrganib chiqilib, 1 379 599 ta jinoyat va huquqbuzarlik sodir etilishining oldi olindi.

Aholining 2 470 554 ta murojaatlari koʻrib chiqilib, qonuniy qarorlar qabul qilindi. 8 mlndan ortiq xonadonlar oʻrganib chiqilib, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori boʻlgan 1 066 261 nafar shaxslar “ijtimoiy profilaktika” tizimi bilan qamrab olindi;

«Mahalla yettiligi» tomonidan mazkur shaxslarning 912 077 nafarida mavjud ijtimoiy muammolar bartaraf etildi

Sudlarda nizolashayotgan 70 390 ta oilada 68 507 ta muammolar bartaraf etildi, 21 756 ta oila yarashtirildi, oilaviy zoʻravonlikka uchragan 21 756 nafar ayollarga himoya orderlari berildi, salbiy xulq-atvordagi 46 589 nafar shaxslar bilan individual profilaktik ishlari olib borildi.

17 898 nafar yashash, oʻqish va ish joyiga ega boʻlmagan shaxslarga ijtimoiy, 14 319 nafar nazoratsiz qolgan bolalarga ijtimoiy yordam koʻrsatildi, 9 026 nafar shaxslar majburiy davolanishga yotqizildi.

Mahallalarda 2 658 995 ta maʼmuriy huquqbuzarlar aniqlanib, ularga 793 mlrd 372 mln soʻm miqdorida jarimalar belgilandi.

Profilaktik tadbirlar natijasida:

- 9 008 ta mahallaning 44,8 foizida (4 034 ta) jinoyat sodir etilishiga yoʻl qoʻyilmadi;

- oldini olish mumkin boʻlgan jinoyatlar 2 105 taga (45 621/43 516);

- yoshlar jinoyati 15,1 foizga yoki 2423 taga (16 062/13 639);

- ayollar jinoyati 14,2 foizga yoki 592 taga (4 167/3 575);

- guruhlar jinoyati 13,1 foizga yoki 590 taga (4491/3 901);
- voyaga yetmaganlar jinoyati 11 foizga yoki 316 taga (2 870/2 554);
- mastlar jinoyati 5,6 foizga yoki 112 taga (2 004/1892), kamayishiga erishildi;

III. Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash

– haydovchilar tomonidan harakatlanish tezlik me'yorlariga rioya etilmaslik holatlarini aniqlash maqsadida “onlayn” rejimda ishlovchi 5 134 ta foto va video moslamalari o'rnatildi, yo'l-patrul xodimlari 4 557 ta bodikameralar, 5 860 ta qoidabuzarliklarni rasmiylashtiruvchi planshetlar bilan ta'minlandi;

– respublika avtomobil yo'llarida 26,9 mlndan (26 927 710 ta) ortiq yo'l harakati qoidabuzarliklari, shundan 19,9 mlntasi (19 912 093 ta) kompyuterlashtirilgan boshqaruv tizimi yordamida aniqlangan;

– davlat xizmatlarini ko'rsatish markazlari orqali fuqarolarga 354 338 ta haydovchilik guvohnomalari rasmiylashtirilib, 96,9 mlrd (96 mlrd 970 mln 252 ming 400) so'mdan ortiq pul mablag'lari tushirildi;

– **O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga 4 mln 673 ming 599 ta ID-kartalar** rasmiylashtirilib berildi. **477 nafar** (2016-yildan 24 810 nafar) **fuqaroligi bo'lmagan shaxslar** O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilindi;

– respublikamizga tashrif buyurgan **439 ming 497 nafardan ortiq** xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar **vaqtinchalik qayddan o'tib**, ulardan **2, 4 trln** so'mdan ortiq **davlat boji undirildi**.

– **1 mln 469 ming 377 nafar** fuqarolarga **xorijga chiqish biometrik pasportlari** rasmiylashtirildi.

– Probatsiya nazoratidagi **94 543 nafar** shaxslarni ijtimoiy psixologik portreti tuzildi va muayyan kasbga ega bo'lmagan **9 771 nafar** shaxslarning barchasi o'qitish uchun yuborilib, **9 156 nafari** kasb hunarga o'qitilishi ta'minlandi.

– Shu bilan birga, nazoratdagilar bilan **4 375 marotaba** o'tkazilgan **“Ishga marhamat”** tadbirlari natijasida **16 765 nafari** ishga joylashtirildi.

– Nazoratdagi shaslarni ijtimoiy moslashtirish va yordam ko'rsatish masalasida mutasaddi tashkilotlarga **5 573 ta** taqdimnomalar kiritildi.

– Probatsiya boshqarmasi nazorati ostidagi **96 078 nafar** shaxslar hisobdan chiqarilib, qat'iy tuzalish yo'liga kirgan **32 690 nafar** nazoratdagi shaxslar muddatidan ilgari jazodan shartli ozod etildi.

Nazoratda turgan shaxslar bilan **4 597 marotaba** uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazilib, **40 086 ta** masalalar bo'yicha ijtimoiy-huquqiy masalalar bo'yicha yordam ko'rsatildi.

Shundan, 33 182 nafariga huquqiy yordam ko'rsatilishida, 44 nafariga uy-joy bilan ta'minlanishida, 2 121 nafariga identifikatsiyalovchi ID karta (pasport) olishda, 5 226 nafariga ijtimoiy yordam ko'rsatilishida, 16 nafariga pensiya olishida va 12 nafariga nafaqa olishida huquqiy yordamlar ko'rsatildi.

Jazo o'tashdan bo'yin tovlab yurgan **7 980 nafar** nazoratdagi shaxslarning o'talmay qolgan jazo muddati jazoning boshqa turiga almashtirildi.

IV. Kriminogen vaziyat

2025-yil 12 oyida respublikada **155 002 ta** jinoyat sodir etilgan.

– **43 516 tasi** (28,1 foizi) oldi olinishi lozim bo'lgan;

– **34 634 tasi** (22,3 foizi) aniqlangan;

– **76 852 tasi** (49,6 foizi) kiberjinoyatlarni tashkil etadi.

Oldi olish lozim bo'lgan jinoyat **4,6 foizga** (45 621/43 516) kamaygan.

Jinoyatlarni aniqlash **23,9 foizga** (27 953/34 634) oshgan.

Birinchidan, 2025-yil 12 oyida **oldi olinishi lozim** bo'lgan jinoyatlar **2 105 taga yoki 4,6 foizga** (45 621/43 516) kamayishiga erishildi.

Oldi olinishi lozim bo'lgan jinoyatlar **Toshkent shahar** (8 906/7 681), **Surxondaryo** (2 270/2 012), **Qoraqalpog'istonda** (1 701/1 491), **Buxoro** (2 415/2 152), **Sirdaryo** (937/914), **Qashqadaryo** (2 774/2 620), **Xorazm** (1 091/1 048), **Toshkent** (5 598/5 117), **Farg'ona** (6 475/5 912), **Namanganda** (3 745/3 736), **Navoiy** (1 289/1 286), **Jizzax** (1 307/1 260), **Andijonda** (2 968/2 949) viloyatlari kamaygan.

Jinoyat turlaridan **qotillik 48 taga yoki 13,2 foizga** (364/316), **og'ir tan jarohati yetkazish 60 taga yoki 6,2 foizga** (826/798), **o'g'rilik 299 taga yoki 2,8 foizga** (10 683/10 384), **talonchilik 107 taga yoki 20,7 foizga** (517/410), **bosqinchilik 33 taga yoki 20,2 foizga** (163/130) **firibgarlik 354 taga yoki 4,3 foizga** (8 216/7 862), **bezorilik 114 taga yoki 4,8 foizga** (2 369/2 255), **avtotransportni olib qochish 27 taga yoki 10,6 foizga** (254/227), **o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish 188 taga yoki 7,9 foizga** (2 372/2 184), **yengil tan jarohati yetkazish 531 taga yoki 17,8 foizga** (2 985/2 454), **yo'l-transport hodisalari 138 taga yoki 1,5 foizga** (9 365/9 227) hamda **o'lim bilan bog'liq YTH 36 taga yoki 1,9 foizga** (1 869/1 833) kamaydi.

Oldi olinishi lozim bo'lgan jinoyatning **42,2 foizini** (18 376 ta) mulkiy turdagi, **16 foizini** (7 001 ta) sog'liqqa qarshi, **21,2 foizini** esa (9 227 ta) yo'l-transport hodisalari tashkil etadi.

O'z navbatida, mulkiy turdagi jinoyatlarning asosiy salmog'i (18 376 dan 10 384 ta, 56,5%) o'g'riliklar hisoblanib, ularning **22,7 foizini** (2 363ta) xonadon, **18,6 foizini** (1 937 ta) telefon o'g'riliklari sodir etilgan.

Mulkiy turdagi jinoyatlarning yana **42,8 foizini** (18 376 dan 7 862 ta) firibgarlik tashkil etib, ularning **22,9 foizi** esa (1 802 ta) ishga kiritish, uy-joy yoki mashina olib berishni va'da berib sodir etilgan.

Ikkinchidan, 2025-yil 12 oyida xodimlarning tashabbusi bilan **jinoatlarni aniqlash 23,9 foizga** yoki **6 681 taga** (27 953/34 634) yaxshilangan.

Xususan, **15 412 ta** narkojinoyat aniqlanib (2024-y. 12 278 ta, +25,5 %), noqonuniy muomaladan **3 tn** (3 t 775 kg 513 gr) giyohvandlik vositalari olindi (2024 y 12 oyda 2 t 138 kg 233 gr).

Shu bilan birga, fohishaxona (*1 859/2 663*), terrorizm (*939/1 201*), noqonuniy qurol saqlash (*501/1 028*), odam savdosi (*177/178*) jinoyatlarini aniqlash yaxshilandi.

Uchinchidan, alohida toifadagi shaxslar bilan manzilli ishlar samarali amalga oshirildi.

Xususan, “ijtimoiy profilaktika” tizimi doirasida mazkur tizim asosida joriy yilda 912 mingdan ziyod (*912 077 nafar*) huquqbuzarlik sodir etishi yoki undan jabrlanishi mumkin bo‘lgan fuqarolarning muammolari ijobiy hal etildi.

Nizoli oilalar bilan “mahalla yettiligi” vakillari hamkorlikda manzilli ishlar samarali tashkil etilib, o‘tgan yil 12 oyida **78 mingdan** ortiq (*78 328 nafar*) xotin-qizlarga «**himoya orderi**» berilib, shundan **42 mingta** (*42 286 ta*) oila yarashtirildi, **47 ming** (*47 927 ta*) nizolarning asl sabablari bartaraf etildi.

Shuningdek, **sudlarda nizolashayotgan 68 mingdan ziyod** (*70 390 tadan 97 %*) oilalar o‘rganilib, **7,7 mingdan** ziyod (*7 768 ta*) aliment bilan bog‘liq, **2 707 ta** mol-mulk bilan bog‘liq muammosi hal etilib, **38 mingdan ziyod** (*38 357 ta*) oilaviy nizo bartaraf etildi.

Respublika bo‘yicha **17 ming** nafar “**og‘ir**” toifadagi yoshlar ichki ishlar rahbarlariga biriktirilib, ularning **7 635** nafarida muammo aniqlanib, **6 834** tasi hal etildi.

Natijada o‘tgan yil 12 oyida **voyaga yetmaganlar** (*2 870/ 2 554*), **ayollar** (*4 167/3 575*), **yoshlar** (*16 062/13 639*), **ilgari sudlangan** (*5 418/ 5 032*), **ishsizlar** (*4 364/ 3 763*) jinoyati kamaygan.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi